

II JAHON SAN'ATI TARIXI II




ISBN 978-8943-312-31-9



N. Abdullayev

JAHON SAN'ATI TARIXI



706
A 15

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

Ne'mat Abdullayev 5.

JAHON SAN'ATI TARIXI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma



TOSHKENT
«DAVR PRESS»
2007



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining ilmiy kengashi
kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etgan

Muallif: N. U. Abduliayev

Taqrizchilar: A. Xakimov — s.f.d., prof.
O'zbekiston Badiiy Akademiyasining
haqiqiy azosi, akademik;
Bulatov S. S. — p.f.d., prof.
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika
universiteti amaliy san'at kafedrası mudiri

*Jahon san'ati tarixi o'quv qo'llanmasi san'atshunoslik
yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarining o'quvchilari
uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada jahon, asosan Yevropa
va Amerika tasviriy, amaliy va me'moriy san'at turi va
janrlariga oid ma'lumotlar, san'atning yetuk vakillari,
uning qadimgi davrdan bizgacha bo'lgan tarixi va
texnologik jarayonlari, rivojlanish bosqichlari, asosiy
yo'nalishlari haqida so'z yuritiladi.*

ISBN 978-9943-312-31-9

© «DAVR PRESS» nashriyoti, 2007

SO'ZBOSHI

Inson dunyoni tanigani sari uning murakkabligini ham his etib bordi. Borliqni idrok etish jarayonida paydo bo'lgan fikr, his-tuyg'ularini dastlab tovush, harakat, imo ishoralar bilan ifodaladi. Hayotiy tajribasi ortib, hissi munosabatini ohang, rang, chiziq, shakl va harakatlarda aks ettira boshladi. Shu tariqa san'at turlari paydo bo'ldi. San'atning rivojlanishida mehnatning o'rnini ham katta bo'ldi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg'usini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtirib, tabiiy sirlarini ocha boshladilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Mehnat qurollarining umumiy ularda o'z qurollariga nisbatan mehnat tuyg'ularini uyg'ota bordi. Ular o'z qurollariga bezak berish orqali shu mehrlarini izhor etishga harakat qildilar. Qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi ularning voqelikdagi, hayotdagi go'zallik va xunukliklarni his etish tuyg'ularini rivojlantirdi. San'atning yuzaga kelishi insonning ob'yektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga olib keildi, ajdodlari yaratgan kashfiyotlarni o'rganishga undadi. Bugun san'at keng ma'noga ega bo'lib, u teatr, musiqa, raqs, sirk, kino, pantomima, me'morchilik, tasviriy san'at, amaliy san'at, bezak san'ati va h.k. larni o'z ichiga oladi. Bu san'at turlarining o'z ijodkorlari bor. Har biri o'z tarixi, rivojlanish xususiyatlariga ega. Biz faqat tasviriy, amaliy bezak san'ati va me'morchilik san'atining jahon xalqlari hayotida tutgan o'rnini ko'rib chiqamiz. Ular tarixini o'rganish uchun dastlab shu san'at turlari xususiyatlari va har birining ichki bo'linishlariga to'xtalib o'tamiz.

I. Tasviriy san'at turlari

Insonning his-tuyg'ulari, kechinmalari, tasavvur va xayollarini chiziq, rang, oq-qora bo'yoqlarda, hajmli yoki hajmsiz, rangli yoki rangsiz shakllarda biror yuza yoki makonda aks ettirish san'atiga **tasviriy san'at** deyiladi. Tasviriy san'at asarlari tasvirlash uslubi, tasvirlash uchun tanlangan materiallarga (ashyolar) qarab grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik turlariga, tanlangan ob'yekti mazmuni va yo'nalishiga qarab janrlarga ajratiladi. Masalan: tabiat manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar – *manzara janri*, odamlar qiyofasini aks ettiruvchi rasmlar – *portret janri* deb nomlanadi.

1.1. Grafika

Grafika tasviriy san'atning keng tarqalgan va eng ommabop turi hisoblanadi. Oddiy qora qalamda chizilgan surat, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli badiiy chizma va bezak rasmlar, yo'l chiptasidan tortib murakkab rasmiy pul va lotereya qog'ozlari, plakat, etiketka, o'rama (upakovka), markalar grafika san'atining ko'rinishlari hisoblanadi. Grafika asarlari qo'lda qalam bilan yoki shunga o'xshash chizish mumkin bo'lgan biror asbobda (ko'mir qalam, pero, pastel, sous, sangina, flomaster va h.k.) ishlanishi, bosma uslubda bajarilishi mumkin. Shunga binoan qo'lda chizilgan tasvirlar — qalamtasvir bosma uslubda bajarilgan, ya'ni biror yuzada, masalan taxtada (metal, yuzasi tekis qilinib ishlov berilgan tosh va h.k.) ishlanib qog'ozga tushirilgan ko'rinishi graviyuraga ajratiladi.

1.2. Rangtasvir

Rangtasvir deb rangli ashyo — materiallarda (bo'yoqlar akvarel, moybo'yoq, tempera, guash, yelim bo'yoq, rangli tosh,